

OSHIQ ERKIN SHE'RIYATI TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Dildorxon Sultanova Azamat qizi

Urganch davlat universiteti Magistratura bo'limi

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

Bilamizki, tilimizning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi sanaladi. “Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy- tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy- madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf –odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan avlodga uzatiladi”¹³

Tilshunos olim, professor Nizomiddin Mahmudov aytganidek, “Iboralar tilning boyligi va ta'sirchanlik quvvatini, ayni paytda qadimiyligini hamda milliy- madaniy o'ziga xosligini baralla namoyon etadigan xolis va tiniq ko'zgidir Iboralar zaxirasining salmog'i va hajmi, tabiiyki, barcha tillarda bir xil darajada emas”.¹⁴

Ma'lumki, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi bo'lgan tilning frazeologik fondini boyitishda yozuvchilarning o'rni beqiyosdir. O'zbek milliy frazeologizmlarining boyishi, rivojlanishi va keng yoyilishiga katta hissa qo'shgan shoirlardan biri, sermahsul ijodkor Oshiq Erkindir. Uning xalq iboralarini she'riy misralarga singdirib yuborish mahoratini quyidagi misralarda ko'rishimiz mumkin.

Yomon ko'zdan saqla, deb duoda Oshiq Erkin,

Jonim, taqib yur tumor, hammaning ko'zi senda. [Muhabbatdan to'yganim yo'q.28-bet]

O'zbek tilida “ko'z” so'ziga qator fe'llar qo'shilishi natijasida xilma-xil ma'no ifodalalovchi iboralar hosil bo'ladi. Bunday iboralar she'riy misralarda obrazlarning turli kayfiyat, turli his-hayajoni, turli xil ma'no anglatish niyatlarini anglab keladi. Yuqoridagi parchada “Yomon ko'zdan saqlamoq” iborasi keltirilgan. Xalqimizda azaldan “Ko'z tegmoq”(ko'z tegmasin; ko'z tegdi) iborasi bor.U ko'zikmoq ma'nosini beradi. Bu iboralar o'zaro sinonimik munosabatda bo'la oladi. Ko'z tegmasligi uchun yangi tug'ilgan chaqaloqlarga yoki, istarsi issiq odamlarga ko'zmunchoq tumor taqib qo'yishadi.Bu narsa o'zbek xalqiga xos urf-odatlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarkibda “ko'z” asosiy komponent bo'lgan iboralar Oshiq Erkin asarlarida ko'plab uchraydi.Masalan:

Osmonimdan uchib o'tgan turnalar,

¹³Shoira Usmonova .Lingvokulturalogiya darslik.Toshkent 2019.-B--92

¹⁴ N.Mahmudov-“Iboralar va ularning lug'aviy tavsifiga chizgilar”maqola “O'zbek tili va adabiyoti”jurnali-3/2022.3-bet

Ko`rdingizmi, sevar yorim bormikan?

Kelarmi deb **ko`z tutaman yo`liga**,

Yo`llarimga ul ham intizormikin?[66-bet]

O`zbek xalqiga xos xususiyatlardan yana biri “kutish” dir. “Ko`z tutaman yo`liga” frazema intiqlik bilan kutish, sadoqat va vafo ramzini anglatgan. Yuqoridagi baytlar tahlilida oshiq qalbining intiqligi va mahubasini ko`rishga zorligi aks etgan. Iboralarda raqamlarning ham ma`noni bo`rttirib, kuchaytirib ko`rsatishda ro`li bor. “Ko`z tutmoq” iborasiga qaraganda, “ko`zi to`rt bo`lmoq” iborasida ma`no kuchaytirib ifodalanadi. Iboralar orqali so`zlovchining xilma-xil uslubiy ma`no anglatish niyati ta`sirchan ifodasini topadi. Kinoyalar, sha`ma qilishlar, tahdid, po`pisa, do`q, og`rnish, hazil-mutoyia, qochirim, pardali gapirish, ma`noni kuchaytirib ko`rsatish, ijobiy va salbiy baholash va boshqa uslubiy ma`no anglatish niyatlari iboralar orqali ta`sirchan tus oladi. Quyidagi baytda oshiqning qahr-u g`azabi aks etgan.

Erkam, bevafoqliqni **kor etaman** kelmasang,

Sadoqatim, mehrimga zor etaman kelmasang,

Ahli bazimdan sensiz or etman kelmasang.

Ko`zlaringa dunyoni tor etaman kelmasang.

Mahvashim , bugun **qattiq qor etaman** kelmasang,

O`zga birni umrlik yor etaman kelmasang.[67-bet] Insolarning his-hayajonini, qahr-u g`zabini va do`q po`pisasini ma`nosini bildiruvchi “ko`z” komponenti bilan bog`liq iboralar ham yo`q emas. “Ko`zlaringa dunyoni tor etaman kelmasang”-mashuqaning bshiga og`ir kulfat keltirmoq, yomonlik qilmoq. Bu yuqoridagi baytda shoir frazemalarni shunday mahorat bilan qo`llaganki, hatto ularga qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan. “Kor etaman”, “zor etaman” , “or etaman”, “tor etaman” va “qattiq qor etaman” kabi frazeologik birliklar qo`llangan. Shularning ichida “qattiq qor etaman”(Xafa bo`lmoq, ranjimoq) iborasi faqat Xorazm shevasidagina qo`llaniluvchi iboralar sirasiga kiradi. Xolbuki, turg`un bunday iboralar ham tilimizning betkror va o`ziga xos boyligini, ulkan ifoda imkoniyatlarini, ayni paytda xalqimizning milliy obrazli tafakkur tarzini namoyon etadigan birliklardir. So`z

va frazeologik birliklar orasidagi asosiy farq ularning semantikasida yashiringan bo`lib, so`zda to`g`ri, nominativ ma`no, frazeologizmda esa obrazli-nominativ ma`no ustuvor bo`ladi”¹⁵ Bunga misol tariqasida shoir ijodidagi “ko`z” komponentli iboralardan yana biri quyidagi misrada keltirilgan.

Ahdingni buzar bo`lsang, baxtingni buzar bo`lsang,

Yotga ko`z suzar bo`lsang- sendan kechganim bo`lsin,

Oq tovba, qora tovba. [79-bet]

Ushbu baytdagi “Yotga ko`z suzar bo`lsang” frazemasini begona insonga(yigitga) qaramoq, nazar tashlamoq va ko`zini o`ynatmoq iborasiga teng. Boshqacha qilib aytganda o`ziga jalb qilmoq ma`nolarini bildiradi. Mendan boshqaga qarama degan gap

¹⁵ Хамидов Х.Турк фразеологияси масалалари.-Тошкент. “Bayoz”,2019,14-15-бетлар

bilan “Yotga ko`z suzar bo`lsang” frazemasi o`rtasidagi ma`noni taqqoslasak, frazema anglatayotgan ma`no va ifoda usuli kuchliroq ta`sir qiladi. O`zi odatda, frazeologizmlar nutqimizni sehrli va jozibador qiladi.

Og`ritsang agar dilni, yo **ko`zga ilsang** birni,

Mendan ham ko`r jabrni, sendan kechganim bo`lsin,

Oq tovba, qora tovba. [79-bet] O`zbek tilida iboralarning salmog`i keng. Yuqoridagi misrada ikkita ibora yonma- yon qo`llanilgan. “Dilni og`ritmoq” iborasi (Ranjitmoq, xafa qilmoq, ozor bermoq) ma`nolarini bildiradi. Bu frazema tarkibidagi “dil” so`zi “ko`ngil” bilan sinonim munosabatda qo`llangan.

“Ko`z” ko`rish sezgi ifodasi bilan shakllangan iboralardan yana biri “Ko`zga ilmoq” frazemasidir. Ibora ko`pincha obyektini tavsiflab ko`rsatadi. Bunday paytda so`zlovchining munosabati aniq, ijobiy yo salbiy bo`ladi. Shunga qarab, baholash ma`nosi ham ijobiy yoki salbiy bo`ladi. “Ko`zga ilsang birini” misrasida oshiq mashuqaga “ogohlantirish” berayotgan bo`lsa, ag`yordan mashqani rashk qilish tuyg`usini tarannum etgan. “ko`zga ilmay ishqimni rad etar bo`lsang” jumlasida asosiy obraz sifatida oshiqning o`zi gavdalanadi. “Ko`zga ilmoq” frazemasining sinonimi bo`lgan “nazariga ilmoq” frazemasini ham shoir ijodida uchratishimiz mumkin.

Shunday umidlar ila **berganmidim dilimni**,

Vafo rasmin bilmayin nega meni qiynaysiz?

Intizorlik hasrati bo`g`zimga kelib yetdi.

Nazarga ilmayin nega meni qiynaysiz? [Muhabbatdan to`yganim yo`q.35-bet]

Ko`zga ilmay ishqimni rad etar bo`lsang,

Odammasman boshqa qo`ymasom otimni. [81-bet]

O`zbek xalqiga xos bo`lgan shijoat, ahd va qalbi qaynoqlik, quyidagi frazemamida aks etgan. “Boshqa qo`yaman odimni” frazemasini tarkibidagi “ot”-so`zi Xorazm shevasiga xos leksik birlik sanalib, adabiy tilda “ism” leksemasi bilan bir xil manoni anglatadi. Ismini boshqa qo`ymoq, menimcha, bu frazemamiz ham faqat Xorazm shevasiga xos leksik qtlamdir. Xorazm yigitlaridagi qalbi qaynoqlik, otashnafaslik Oshiq Erkin ijodining go`zal namunalariga singib ketgan.

O`zbek xalqiga xos bo`lgan yana bir yaxshi fazilatlardan biri bu mehnatkashlik, elparvarlik, jonkuyarlikdir. Shunga monand semantikani tashkil qiladigan frazemalar shoirimizning quyidagi misralarida uchratishimiz mumkin.

Soyang tushmasa birovga, bormasang yo hol so`rovga,

Aylansang el uchun yovga- kelding nima, ketding nima.

[Muhabbatdan to`yganim yo`q.11-bet] Bu frazeologiyamiz tarkibidagi so`zlar butunlay ko`chma ma`noda bo`lib, birovga hech ham yaxshilik qilmasdan, naf keltirmasdan bu xalq, vatan uchun biror foydang tegmasa, qanday yashayapsan savolini o`rtaga tashlaydi. Frazema tarkibidagi “Soya” leksemasi orqali “Naf, foyada” semasi anglashilgan. Ijodkor she`rlarida mehnatkashlikni tarannum etuvchi ko`plab frazemalarni uchratishimiz mumkin. Masalan:

Boz mashhur aylab xoriya, kuylay sochimni toricha ,

Ter to`kay umrim boricha, buturgil ish menga,yurtim,

Kamxizmatman senga, yurtim, [Muhabbatdan to`yganim yo`q.13-bet] “Ter to`kmoq” frazemasi ham mehnatkashlik semasini tashuvchi frazemadir. Insonning peshona teri, halol mehnati,bu biz o`zbek xalqining kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi adatlardan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Oshiq Erkin ijodida nafaqat o`zbek xalqining mintalitetini, balki Xorazm aholisining turmush tarzini, go`zal va o`ziga xos shevasini aks ettiruvchi frazemalar talaygina.Biz bu farazemalarni yanada ko`proq va mukammalroq o`rganishga harakat qilamiz.